

“TARBIYASI SUSTLASHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI”

*Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani
45- umumiy o'rta ta'lim maktabi
psixologi Usmonova Yulduz*

Annotatsiya: *O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolganday his qilishlari mumkin. Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi.*

O'smir bolalar uchun o'zidan boshqa hamma nohaq. Agar ota-onasi tomonidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanayam qat'iylashadi. Bunday vaziyatda ota-onalar uning fikrini hurmat qilishlarini sezdirishlari va shuning barobarida o'ylagan qarorlarining natijasi haqida maslahatlashishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga savollar berish orqali uni o'ylashga undab, to'g'ri qaror chiqarish imkoniyatini berish lozim.

Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ta'lim sub'ektlarining psixologik xususiyatlarini, o'zaro munosabatlarining psixologik asosini tadqiq etish muhim masaladir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olishlari va dunyoqarashlarini qat'iy maqsadli, izchil, tizimli, uzviy tashkil etish, ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatida keng ko'lamli va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi. Yoshlarning ijtimoiy voqelik hodisalariga to'g'ri baho bera olishlari, ijtimoiy o'zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo'lishlari ma'lum darajada ularning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini talab etadi. O'quvchilar taffakuri va intellekti darajasini diagnostika qilish yoshlarda keng dunyoqarashni shakllantirishning shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot konsepsiyasiga muvofiq o'quvchining kasbiy shakllanishida taffakur va umumiy intellekt dinamikasini tadqiq etish psixologik va ijtimoiy qonuniyatlar integratsiyasiga asoslanishini ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda kasbiy shakllanishning ijtimoiy-psixologik omillari o'z yechimini topdi.

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o'rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o'rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o'rinni egallamoqda. Shu nuqtai nazardan bizning tadqiqot mazumimiz dolzarb maslalani taxlil qilishga yo'naltirigan.

Tarbiyasi qiyin bolalar!? Hammaga ma'lum bo'lgan va afsuski, allaqachon ko'nikib ketilgan bu atama ortida nimalar turadi? O'qituvchi uchun, sinfdoshlariga yomon ta'sir ko'rsatuvchi norasmiy, bolalar bog'chasi tarbiyachisi uchun esa xarxashali, injiq, tinib-tinchimas bola. Ota-onalar uchunchi? Har qaysi uchun u o'zgacha ma'no kasb etadi. Ota-onalar tushunchasidagi qiyin bolaning mumkin bo'lgan barcha variantlarini aytib o'tish foydasiz, chunki har qanday bola ham tabiatan qiyin bo'lishi mumkin.

Odatda hamma bolalar ham tug'ilgan vaqtlaridayoq ota-onalariga ma'lum bir qiyinchiliklarni keltiradilar. Ammo ba'zilar uchun muammo bo'lgan narsa boshqalarga hech qanday qiyinchilik keltirmaydi va u ko'pgina sabablarga bog'liq. Bolaga nisbatan ota-onalarning tutgan yo'li, oiladagi qadriyatlar tizimi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bor yoki yo'qligi, shuningdek, boshqa ko'pgina narsalar bolani tarbiyalash jarayonida muqarrar ravishda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish malakasini belgilab beradi. Shubhasiz, bolalar bir-biriga o'xshamaydi. Bu tabiiy hol. Lekin ko'pincha kattalar buni unutib qo'yadilar, o'zlaricha qanday umumiy tavsiyalardan yordam olishga moyil bo'ladilar va bunda: bola bajarish kerak, bolaga mumkin emas kabi so'zlarni ishlatadilar. Bu esa xato. Bola avval boshdanoq hech narsani bajarishga majbur emas, unga hech narsa joiz ham emas. Aksincha, kattalar uning me'yorida rivojlanishi uchun sharoit yaratishlari, uni kishilar orasida yashashga o'rgatishlari, ularning his-tuyg'ularini, xohish-istaklarini va ishlarini tushunishlari lozim. Vaqt o'tishi bilan, payti kelganda uning o'zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nimalar qilishga majburligini tushunib oladi. Buning uchun esa bolani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, uni shundayligicha tushunishga harakat qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, o'zaro munosabatlarning qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydigan, balki aksincha oilada eng qadriyatli hisoblangan o'zaro hurmat, iliqlik va himoyalanganligini his etishga yordam beradigan usulini topish kerak. Bolaga tug'ilishidan oldin va hayotining birinchi haftalarida bo'ladigan munosabat ko'p jihatdan u bilan kelgusida qilinadigan

munosabatlar xarakterini belgilab beradi. Bu qiyinchiliklar tashqi, psixologik xarakterida bo'ladi va ko'pchilik ota-onalar tomonidan muqarrar yuz beradi, ammo vaqtinchalik hodisa sifatida idrok qilinadi. Biroq, birinchi qiyinchiliklar o'rniga boshqalari paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtda bolalar tomonidan yo'l qo'yiladigan qonunbuzarliklarning oldini olishda maktabning rolijuda oshdi. Eng yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan o'qituvchi tarbiyaviy jarayonning bosh tashkilotchisi o'quvchiga, o'quvchilar jamoasiga, oilaga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirlarning muvofiqlashtiruvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarbiya – ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi odamlar, narsalar, hodisalar ularning ongida, xulq – atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi. Bolalarda, o'smirlarda, yoshlarda ijobiy sifatlarni qaror toptirish uchun

Hozirgi davrda o'quv muassasalar va ulardagi o'quv, tarbiya jamoa oldida juda katta ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalar qo'yilmoqda. Oliy o'quv yurti yosh avlodning dunyo qarashini tarkib toptirish, g'oyaviy va siyosiy jihatdan chiniqtirishi yuksak ahloqiy fazilatga ega qilishi mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda guruh rahbari muhim rol o'ynaydi. Chunki u bir guruh sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ota-ona hamma narsani muhayyo qilishi bolada hech narsaga intilmaslikni keltirib chiqaradi. Barcha muammolarini ota-onasi hal qilib berishi – kelajakda uning hayotini ham ular boshqarishiga zamin yaratadi. Oqibatda ular kelgusida boshqalarning xohishlari bilan yashashga o'rganib qolib, qachondir afsuslanishadi. Shuning uchun o'smirlarda kelajak haqida o'ylash, to'g'ri qaror qabul qilish uchun imkon va tushuncha berishda yordam ko'rsatish kerak. «Sen kelajakda nima qilmoqchisan? Kim bo'lmoqchisan?» kabi savollar bolani o'ylashga majbur qiladi. Birdaniga javob bermasligi mumkin, ammo vaqt o'tib bu haqda o'ylab ko'radi. Ularga o'zi yoqtirgan biror mashhur shaxslarni namuna qilib ko'rsatish ham unga motivatsiya berishi mumkin. Aslida ota-ona bolaga hamma narsani yaratib bermasligi, u nimagadir intilishi, orzu qilishi uchun imkon qoldirishi kerak. Nimagadir o'z mehnati bilan erishsa, u uchun qadrlil bo'ladi.

Ota-ona farzandi oldida uning o'qituvchisi haqida hurmat bilan gapirishi lozim. Bu bilan bolada ustoziga nisbatan hurmat paydo bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nizoli vaziyat kelib chiqqanda bolaning his-tuyg'ularini ham eshitish, uni doim tushunishlarini anglatish yaxshi samara beradi. So'nggi paytlarda shunday vaziyat yuzaga kelganda borib o'qituvchini urib kelayotgan ota-onalar ko'paydi. Bunda ular yutqazadi, bu holat oqibatida sinfdoshlarida bolaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi, bola bundan keyin ham o'z munosabatlarini shunday hal qilishga o'rganishi mumkin. Bu bilan ular farzandiga juda

yomon namuna ko'rsatishadi. Shunday tushunmovchilik holati sodir bo'lganda o'qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning sinfdagi obro'sini tiklash, o'ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun bolani o'sha o'qituvchiga qo'shimcha darslarga berish ham yaxshi natija berishi mumkin. Bu bilan bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon toppish mumkinligini anglaydi.